



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

SHUKUR XOLMIRZAYEV VA HERMANN HESSE HIKOYALARIDA INSON VA TABIAT MUAMMOSI

Mansurova Shahlo

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

shaxlo.mansurova@mail.ru

+998941943120

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Shukur Xolmirzayev va Hermann Hesse asarlaridagi inson va tabiat munosabatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Jumladan, maqolada tabiat tasviri, unda inson ruhiyatining ifodasi, inson va tabiat munosabatlarida umuminsoniy muammolarning aks etishi, tabiatning ruhiy poklanishga ta’siri masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, har ikki yozuvchining ham tabiatga bo‘lgan yondashuvidagi farqlar va umumiyligi jihatlari chuqur o‘rganilgan. Ularning badiiy usullari, tabiat tasviridagi badiiy-estetik funksiyasi tahlil qilindi.

Данная статья посвящена сравнительному анализу взаимоотношений человека и природы в работах Шукура Холмирзаева и Германа Гессе. В частности, в статье рассматривались вопросы образа природы, выражения в ней психики человека, отражения общечеловеческих проблем во взаимоотношениях человека и природы, влияния природы на духовное очищение. Также были глубоко изучены различия и общие аспекты подхода обоих писателей к природе. Анализировались их художественные приемы, художественно-эстетическая функция в изображении природы.

This article is devoted to a comparative analysis of the relationship between man and nature in the works of Shukur Kholmirzaev and Hermann Hesse. In particular, the article considered the issues of the image of nature, the expression of the human psyche in it, the reflection of universal human problems in the relationship between man and nature, the influence of nature on spiritual purification. The differences and common aspects of both writers' approach to nature were also deeply explored. Their artistic techniques, artistic and aesthetic function in depicting nature were analyzed.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

Kalit so‘zlar: inson, tabiat, Shukur Xolmirzayev, Hermann Hesse, realistik tasvir, ramziy-falsafiy mazmun, ruhiy izlanish, ekologik muammo, badiiy-estetik funksiya.

Ключевые слова: человек, природа, Шукур Холмирзаев, Герман Гессе, реалистичное изображение, символико-философское содержание, духовные поиски, экологическая проблема, художественно-эстетическая функция.

Keywords: human, nature, Shukur Kholmirzaev, Hermann Hesse, realistic image, symbolic and philosophical content, spiritual quest, ecological problem, artistic and aesthetic function.

Jahon adabiyotida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar badiiy asarlarning ajralmas qismi sanaladi. Tabiat, uning go‘zalligi va sirli kuchlari bilan insonni o‘ylashga, his qilishga va ijod qilishga undaydi. Shuningdek, tabiat ruhiy salomatlikka ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy asarlarda tabiatda o‘tkazilgan vaqt insonni qayta tiklaydi, yangi fikrlar va ijodiy g‘oyalar tug‘diradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tabiatda bo‘lish stressni kamaytiradi va ruhiy salomatlikni yaxshilaydi. Adabiyotda tabiat manzarasi yozuvchilarining badiiy asarlari orqali ham o‘zining yuksak ifodasini topib kelmoqda. Shu bois, insonlar tabiatni badiiy asarlar orqali ko‘proq his eta olishlari mumkin. Bugungi dunyo global muammolarining badiiy talqini insonlarda tabiatni asrash, unga oqilona munosabatda bo‘lish, tabiat va insonning yaxlitligini chuqurroq his etish imkonini bermoqda.

Xususan, William Wordsworthning “I Wandered Lonely as a Cloud”[1] she’rida tabiatning go‘zalligi va uning inson ruhiga ta’siri yorqin ifodalangan bo‘lib, unda bir gulning chiroyi va uning his-tuyg‘ulari aks ettiriladi. Henry David Thoreau “Walden”[2] asarida esa tabiiy muhitda yashash muhimligini va uning inson ruhiyatidagi rolini aks ettiradi. Shuningdek, rassom Van Goghning “Yulduzli tun”[3] asarida tabiatning o‘zgaruvchanligini insonning ichki kechinmalariga qiyoslanib tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Unda osmon va tabiatdagi ranglar jilosi insonning ruhiy olamini o‘zida namoyon etgan. Adib Rachel Carsonning “Silent Spring”[4] atrof-muhit haqidagi ilmiy kitobida, ekologik muammolar ko‘tarilgan bo‘lib, kimyoviy moddalar va uning insoniyatga, tabiatga ta’siri keng yoritilgan. Mazkur asarning ta’sirida hatto butun dunyoda ko‘ngilli shaxslar



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

tomonidan ekologik harakatlarning boshlanishiga turtki bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek adabiyotining yorqin vakili Shukur Xolmirzayev hamda nemis adabiyotining Nobel mukofoti sovrindori Hermann Hesse ijodida inson va tabiat muammosi keng o‘rin egallagan. Jumladan, Shukur Xolmirzayevning “Yozgi yurt” asarida yozuvchi tabiatning go‘zalligi va inson ruhiga ta’sirini obrazli aks ettirgan. Bu asarda tabiat insonning his-tuyg‘ularini kuchaytiradi va ruhiy yangilanish manbayi sifatida xizmat qiladi. *“Tabiat, uning go‘zalligi va quvonchi, odamning ruhini yengillashtiradi. Qushlarning shivirlashi, shamolning shovqini insonni tabiatga yaqinlashtiradi”*[5]. Ushbu parcha insonning tabiat bilan uyg‘unligini va uning ruhiy salomatlikka ta’siri o‘z aksini topgan.

Ta’kidlash joizki, Shukur Xolmirzayev o‘z asarlarida bizni ko‘proq qaqragan dashtlarga, Surxonning jazirama oftobi ostidagi qishloqlarga, tog‘ yonbag‘irlariga olib kiradi. Uning asarlaridagi qahramonlar tabiatning sodda dilkash farzandlari hisoblanib, ular yerga, chorvaga, tog‘-u toshga singib ketgan qishloq odamlari edi. Shuningdek, adib uchun tabiat – bu romantik xayol emas, balki tirikchilik manbai, kundalik kurash maydoni sifatida ko‘rilgan. Xolmirzayev tabiatni bezab ko‘rsatmaydi, aksincha, uning gohida qanchalik shafqatsiz bo‘lishi mumkinligini ham ochiq tasvirlaydi. Shuning uchun qurg‘oqchilik, sel, qahraton sovuq – bularning barchasi inson irodasini sinovchi, uning matonatini o‘lchovchi mezonlar bo‘lib xizmat qiladi. Uning “Bodom qishda gulladi” va “Jahongir” nomli asarlarida inson hamda tabiat o‘rtasidagi munosabatlar murakkabligi ko‘rsatilib, insonning tabiatga bo‘lgan mas’uliyati va uning muhimligini ta’kidlaydi. Bu asarlar insonning o‘z hayotidagi joyini topishi uchun tabiat bilan uyg‘unligini o‘rganadi. *“Tabiat nafaqat go‘zallik, balki insonning o‘zligini anglash va hayotning haqiqiy ma’nosini topish yo‘lidagi yo‘ldoshidir”*[6]. Bu so‘zlar inson va tabiat o‘rtasidagi chuqur aloqani ifodalaydi. Shu bilan birga, yozuvchi inson va tabiat o‘rtasidagi muammo ko‘pincha yashash uchun kurashda, tabiat injiqliklariga qarshi turishda yoki ba’zan uning qonuniyatlariga bo‘ysunishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatib bergen[7].

Bundan tashqari, Xolmirzayev qahramonlari uchun tabiat – shahar shovqinidan, yolg‘on va riyodan xoli bo‘lgan, inson o‘zligiga qaytishi, vijdonini poklashi mumkin bo‘lgan muqaddas go‘sha bo‘lib gavdalangan. Bunda yozuvchi tog‘lardagi



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

yolg‘izlikni, dashtdagi kengliklarni insonning o‘z qalbi bilan yuzma-yuz qoldiruvchi sokin maskan sifatida tasviri aks ettirilgan.

Biroq, Hermann Hesse esa bizni boshqa bir olamga yetaklaydi. Uning hikoyalarida tabiat ko‘proq ruhiy izlanishlar makoni, falsafiy mushohada uchun turtki beruvchi ramziy kuch sifatida gavdalanadi. Hesse qahramonlari – ko‘pincha sivilizatsiyadan, jamiyatning qoliplaridan bezgan, o‘z “men”ini izlayotgan ziyorilar, san’atkorlar darbadar insonlar sifatida tasvirlanadi. Ular uchun o‘rmon sokinligi, daryoning mavjlanishi, tog‘larning salobati – shunchaki go‘zallik emas, balki koinot sirlarini anglashga, ichki uyg‘unlikka erishishga yordam beruvchi vosita hisoblanadi. Uning “Knulp” yoki “Siddhartha” asarlaridagi qahramonlar tabiat qo‘ynida o‘z yo‘llarini topadilar, ruhiy poklanishga erishadilar. Shuningdek, Hessening “Demian” asarida esa tabiatni insonning ichki kechinmalari va ruhiy o‘sishida muhim omil sifatida ko‘rsatadi. U mazkur hikoyasida tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanatni izlash orqali o‘zining ruhiy yo‘nalishini topadi. *“Inson o‘zi uchun tabiatda bir joy topishi kerak; faqat tabiatda u o‘zini to‘g‘ri anglaydi”*[8]. Ushbu parcha tabiat va inson yaxlit bir olam ekanligini, ular hamisha bir-birini taqazo qilishi, bir-biriga ehtiyoj sezishi haqida ta’kidlaydi. Shu sabab Hesse uchun inson va tabiat muammosining ildizi ko‘pincha insonning zamonaviy hayot, texnika asri tufayli o‘z tabiiy ildizlaridan uzilib qolishida, ruhining qashshoqlashib, tabiat bilan uyg‘unlikni yo‘qotishida yotadi[9]. Tabiat uning uchun shifobaxsh malham, ilohiy haqiqat manbai, sivilizatsiya keltirib chiqargan sun’iylikka qarshi turuvchi tabiiylik timsoli sifatida qaraladi[10].

Agar ikki ijodkorning qarashlarini qiyoslasak, Shukur Xolmirzayevda tabiatning realistik, hayotiy, ba’zan kurashchan qiyofasi ustunlik qilsa, Hermann Hesse ijodida ramziy-falsafiy, ruhiy-ma’naviy jihatlar yetakchilik qiladi[11]. Xolmirzayev insonning tabiat ichidagi kurashini, unga moslashishini yoki unga zarar yetkazishining oqibatlarini ko‘rsatsa, Hesse insonning tabiatdan ajralib qolishi natijasidagi ruhiy iztiroblarini, unga qayta intilishini tasvirlaydi[12]. Birida tabiat ko‘proq tashqi sinov bo‘lsa, ikkinchisida ichki kamolot yo‘li bo‘lib tasvirlanadi.

Shunday bo‘lsada, har ikki yozuvchi asarlarida bir haqiqatni ta’kidlaydi: inson tabiatning bir bo‘lagidir va undan uzilgan holda to‘laqonli yashay olmaydi. Xoh u Surxon dashtlarida chorva boqayotgan cho‘pon bo‘lsin, xoh Yevropa o‘rmonlarida



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

xayol surayotgan faylasuf – tabiat ularning qalbiga yo‘l topadi, ularni o‘ylantiradi hamda o‘zgartiradi. Shukur Xolmirzayev bizni tabiatga ehtiyyotkor bo‘lishga, uning ne’matlarini qadrlashga o‘rgatsa[13], Hermann Hesse tabiat bilan ruhiy uyg‘unlikka erishish orqali o‘zlikni anglash mumkinligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, bu ikki buyuk adibning hikoyalari bizga inson va tabiat munosabatlarining naqadar rang-barang va teran ekanligini ko‘rsatib beradi. Ularning asarlari bugungi kunda – ekologik muammolar avj olayotgan, inson o‘zining tabiiy kelib chiqishidan tobora uzoqlashayotgan bir davrda yanada dolzarb jaranglamoqda. Ular bizni bir lahza to‘xtab, atrofimizdagi olamga, osmondagи bulutlarga, oyoq ostimizdagi maysaga teranroq nazar tashlashga, tabiatning buyuk hikmatini va u bilan uyg‘un yashash zaruratini anglashga chorlaydi. Chunki inson qalbining eng nozik torlari hamisha tabiat sadosiga hamohang bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. W. Wordsworth, “I Wandered Lonely as a Cloud”, Lyrical Ballads. London, Longman, 1807.
2. H.D. Thoreau, “Walden” or “Life in the Woods”, Boston, Ticknor and Fields, 1854.
3. V. Van Gogh, “Yulduzli tun” (The Starry Night), Museum of Modern Art, New York, 1889.
4. R. Carson, “Silent Spring”, Boston, Houghton Mifflin, 1962.
5. Sh. Xolmirzayev, “Yozgi yurt”, Toshkent, Sharq nashriyoti, 2005.
6. Sh. Xolmirzayev, “Bodom qishda gulladi”, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
7. Sh. Xolmirzayev, “Jahongir”, Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.
8. H. Hesse, “Knulp”, Berlin, S. Fischer Verlag, 1915.
9. H. Hesse, “Siddhartha”, Berlin, Suhrkamp Verlag, 1922.
10. H. Hesse, “Demian”, Berlin, S. Fischer Verlag, 1919.
11. A. Ivanov, “Tabiat tasviri va ramziylik: Gesse va zamonaviy adabiyotshunoslik”, Moskva, Nauka nashriyoti, 2020.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

Internet manbalar:

12. H. Hesse, “Tabiat va ruhiy izlanishlar”. <https://www.hessepuprojekt.org>
13. Sh. Xolmirzayev, “O‘zbek adabiyotida tabiat motivlari”. <https://www.ziyonet.uz>